

AXBOROTNING PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI: TUSHUNCHA, MAZMUN VA HIMOYA MEKANIZMLARINING KONSEPTUAL TAHLILI

Abbasov Alibek Abdullayevich,
erkin tadqiqotchi.

Annotatsiya: Maqolada “axborotning psixologik xavfsizligi” tushunchasining mazmun-mohiyati konseptual va tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot psixologik xavfsizlikni shaxs va jamiyat ongiga axborot ta’siri natijasida yuzaga keladigan destruktiv holatlar (dezinformatsiya, manipulyatsiya, kognitiv buzilishlar, informatsion stress, ijtimoiy vahima, stigmatizatsiya, radikallashuv)dan himoyalanish holati va tizimi sifatida talqin etadi. Mazkur institutning tarkibiy elementlari — axborotga nisbatan tanqidiy tafakkur, kognitiv mustaqillik, emotsional barqarorlik, media savodxonlik, axboriy-gigiyena, shaxsiy chegaralar, ishonchli axborot manbalari va platformaviy muhitning xavfsizligi — alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, ochiq axborot tizimlarida psixologik xavfsizlikka tahdid qiluvchi omillar: algoritmik “echo chamber”, bot-tarmoqlar, koordinatsiyalashgan kampaniyalar, kiberbulling, reputatsion hujumlar va “deepfake” kabi texnologik risklar ko‘rib chiqiladi. Yakunda psixologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ko‘p qatlamli (individa–institut–platforma–huquq) yondashuv, profilaktika va javob choralari tizimi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik xavfsizlik; axborot ta’siri; dezinformatsiya; manipulyatsiya; kognitiv barqarorlik; media savodxonlik; axboriy-gigiyena; kiberbulling; echo chamber; deepfake.

Аннотация: Статья раскрывает содержание и сущность понятия «психологическая безопасность информации» на основе концептуального и аналитического подходов. Психологическая безопасность трактуется как состояние и система защиты личности и общества от деструктивных



информационных воздействий, приводящих к дезинформации, манипуляции, когнитивным искажениям, информационному стрессу, социальной панике, стигматизации и радикализации. Анализируются ключевые компоненты данного феномена: критическое мышление, когнитивная автономия, эмоциональная устойчивость, медиаграмотность, информационная гигиена, личные границы, надёжность источников и безопасность платформенной среды. Рассматриваются факторы угроз в открытых информационных системах, включая алгоритмические «эхо-камеры», бот-сети, координированные кампании, кибербуллинг, репутационные атаки и технологические риски типа deepfake. В заключении предлагается многоуровневый подход (индивид–институт–платформа–право) к обеспечению психологической безопасности и система профилактических и ответных мер.

Ключевые слова: психологическая безопасность; информационное воздействие; дезинформация; манипуляция; когнитивная устойчивость; медиаграмотность; информационная гигиена; кибербуллинг; эхо-камера; deepfake.

Abstract: This article explains the concept and substance of “psychological information security” through a conceptual and analytical lens. Psychological security is framed as a state and a protection system that shields individuals and society from harmful information influences that may cause disinformation, manipulation, cognitive distortions, information stress, social panic, stigmatization, and radicalization. The paper analyzes core components such as critical thinking, cognitive autonomy, emotional resilience, media literacy, information hygiene, personal boundaries, source credibility, and platform environment safety. It also examines threats typical for open information systems, including algorithmic echo chambers, bot networks, coordinated influence campaigns, cyberbullying, reputation attacks, and technology-driven risks such as deepfakes. The article concludes by proposing a multi-layer framework (individual–institution–platform–

law) combining prevention and response measures to strengthen psychological information security.

Keywords: psychological information security; information influence; disinformation; manipulation; cognitive resilience; media literacy; information hygiene; cyberbullying; echo chambers; deepfakes.

Raqamli kommunikatsiyalar va ochiq platformalar sharoitida axborot nafaqat xabar almashish vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va xulq-atvorni boshqaruvchi resursga aylandi. Shu sababli axborotning zararli psixologik ta'siri — manipulyatsiya, dezinformatsiya va kognitiv bosim — jamoat xavfsizligi, ijtimoiy ishonch va shaxsiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. "Axborotning psixologik xavfsizligi" tushunchasini mazmunan aniqlash va uning tarkibiy elementlarini ochib berish, bir tomondan, profilaktika va ta'lim siyosati uchun, ikkinchi tomondan, platformaviy boshqaruv hamda huquqiy tartibga solish uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborot, bu kechayotgan jarayon (voqea, hodisa) bilan tanishtirish uchun, ularning dinamikasi haqida tasavvurni shakllantirishda qo'llaniladigan shartli belgilarning majmuasidir. Axborot, o'zida jarayonni tup mohiyatini, mazmunini ifodalay oladi. Chunki axborotga oid nazariyalarda axborot vujudga kelgan (kelishi mumkin bo'lgan) holat yoki hodisa, boshqacha qilib aytganda jarayon haqida aniqlik kirituvchi moddiy majmualigi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, axborot - bu:

- tashqi dunyodan olingan xabarni va unga moslashish jarayonida mazmunning belgilanishi (Norbert Viner nazariyasi);
- entropiyani (mavhumlik me'yorini – mualliflar: R.S., K.X.) inkor etishi (Brillyuen nazariyasi);
- kommunikatsiya va aloqa jarayonida bartaraf etiladigan noaniqliklarni aniqlashtiruvchi (Klod SHennon nazariyasi);
- xilma-xillikning uzatilishi (Eshbi nazariyasi);
- tizimlarning murakkablik o'lchovini belgilovchi (Mol nazariyasi);
- tanlovning ehtimolligi (YAgglom nazariyasi);

- emotsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi (P.Simonov nazariyasi);
- real borliqni tasvirlab beruvchi, tizimlashtirilgan moddiy belgilar (shakllar) majmuasi (R.Samarov nazariyasi) ekanligi ko'rsatib o'tilgan¹.

Axborot, insonni harakatga keltirishi, harakat yo'nalishini belgilab berishi, faoliyat yo'nalishini tanlash, tasavvurni shakllantirish, munosabat tarzini asoslovchi kabi vazifalarini bajarishi jihatidan psixologik kuchga ega hisoblanadi. SHu sababli, axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatishning asoslari har bir tarixiy davr bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bunda vaqt nuqtai nazaridan qaraganda "kecha▲bugun▲erta" yoki "o'tmish▲hozir▲kelajak" nigohida axborotdan foydalanish tarzi o'zgarib borayotganligini kuzatish mumkin. Lekin ulardagi umumiylik, ya'ni ta'sir ko'rsatish ob'ekti inson psixikasi hisoblanib, psixika, real jarayonni dinamikasini ongda aks ettiradi.²

Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish o'z tarixiga ega bo'lib, SHarqda ham, G'arbda ham o'ziga xos tarzda rivojlanib, uning ayrim jihatlari maishiy munosabatlar namunalarida saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatishning ilk namunalari sifatida turli tarixiy manbalarni siyosiy psixologik tahlilini amalga oshirish asosida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: mish-mishlar tarqatish, g'iybat to'qish, ig'vo uyushtirish, tuhmat qilish, ijtimoiy masofani yaqinlashtirish maqsadida ideallashtirish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ulardan faqatgina shaxsiy yoki jamoaviy (guruh) himoyani amalga oshirish va raqibga (yovuz kuchga) ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalanilganligini inobatga olib, ilohiylashtirilganligi, vazifalari ko'lamining ancha chegaralanganligi, psixologik ta'sir ko'rsatish tarkibida totemistik va mifologik tarkiblar etakchilik qilganligini inobatga olib, axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlashning birinchi davri deb ko'rsatsak maqsadga muvofiqdir.

¹ Самаров Р. Ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми (услубий қўлланма). – Тошкент: Университет, 2015. 31-бет.

² Самаров Р., Садриддинов С. Психика ва онг: антропологик талқиннинг назарий-психологик баёни // Психология. 4. 2017. 20-25 бетлар.

CHunki tarixiy taraqqiyot davomida axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish xarakteri, taktikasi o'zgarib, uning ta'sir doirasi bilan birga aniq sohaga yo'naltirilganligi ham kengaygan. Bunga hududlarning bo'linishi, er usti va er osti resurslarini o'zlashtirilishi (taqsimlanishi), chegaralarning paydo bo'lishi asosiy sabab bo'lganligi ehtimoldan xoli emas.

Bugungi kunda, axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish uchun aniq soha tanlanadi. Masalan, insonga ta'sir ko'rsatish uchun, uning imotsional sohasiga, aqliy sohasiga, jamiyatga ta'sir ko'rsatish uchun, uning iqtisodiy yoki siyosiy, madaniy yoki ijtimoiy sohasiga, davlatga ta'sir ko'rsatish uchun uni ichki yoki tashqi faoliyati tanlanishi mumkin. Va axborotni yaratuvchi (tarqatuvchi), ta'sir ko'rsatish uchun "Moviy ekran", "Hamrohlik", "Bog'lab qo'yish", "O'zlashtirish", "Infoteyment" kabi media-effektlardan foydalanishi mumkin.

Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish qator qulayliklarga ega bo'lib, bunda qo'llash usul hamda vositalarining rangbarangligi, iqtisodiy jihatdan arzonligi, turli manzillardan ta'sir ko'rsatishi, vaqt jihatidan tez sur'atlar bilan tarqatilishi kabilarni ko'rsatib, ulardan ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarga ijobiy tus berish maqsadida ham foydalanish mumkin.

SHu tariqa, axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish nazariyasi va amaliyotiga doir xilma-xil qarashlar vujudga kelgan bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va texnik shart-sharoitlarning ta'siri asosida rivojlanib kelmoqda. Axborot vositasida harbiy xizmatchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish, axborot-psixologik xavfsizlik, axborot xuruji kabi tushunchalar ko'p qo'llanilib kelmoqda. SHu o'rinda ta'kidlash kerakki, axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish (kurash olib borish) o'z tarkibida, axborot, madaniy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'naviy, ekologik kabi xabarlarni mujassam etib, psixolog tarkiblarning (komponentlarning, jumladan, emotsiya, his, diqqat, xotira, intellekt va boshqalar) xususiy qonuniyatlardan foydalanib, bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari axborotni saqlash, ishlov berish va uzatish uchun vosita sifatida qo'llaniladi.



Har bir mamlakatning xavfsizligini taminlashni o'z siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilab, uni amalga oshirish uchun mavjud salohiyatlardan maqsadli foydalaniladi. Bunda axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatishdan ham foydalanish ehtimoldan xoli emas. Mudofaaviy faoliyatda mazkur masala taktik va strategik darajalarda amal qilishi mumkin. Uni anglash uchun, axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatishni "SHaxs va ijtimoiy munosabatlar nazariyasi", "Tahdidlarni aniqlash va javob qaytarish", "YUmshoq kuch", "Umumiy xavfsizlik", "Psixologik xavfsizlik" kabi ta'limotlarga tayaniladi. Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishda mintaqaviy, etnomadaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy kabi omillardan foydalanish mumkin. Ular, xabarni tayyorlashda, aniqrog'i xabarni mazmunini belgilashda birlamchi asos hisoblanadi.

Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish vazifadorligi jihatida konstruktiv va destruktiv kabilarga ajratiladi. Uning konstruktiv jihati ko'proq amaliy ahamiyat kasb etib, bevosita mamlakatning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Harbiy xizmatchilarga mudofaa ongni shakllantirish maqsadida ijobiy ustanovkalar berish, milliy rivojlanishning asosiy tamoyillarini singdirish, jamiyatda ifodalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy og'ishlarni siqish (profilaktikasini amalga oshirish) maqsadida turli usul va vositalar orqali olib boriladigan dasturiy tadbirlar majmuasini amalga tadbqiq etilishidir.

Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish o'z mafkurasiga ega bo'lib, aniq bir ob'ektga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ob'ekt sifatida, alohida inson, jamoa (guruh, millat, xalq), davlat tanlanishi mumkin. Ta'sir o'tkazish maqsadi nuqtai nazaridan axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish ikki guruhga ajratiladi. Har bir guruh vazifasi va maqsadi jihatidangina emas, balki xarakteri, manfaati, maqsadi va yo'naltirilganligi jihatidan axborot vositasida ichki psixologik ta'sir ko'rsatish va axborot vositasida tashqi psixologik ta'sir ko'rsatishga ajratiladi.

Axborot vositasida ichki psixologik ta'sir ko'rsatish. Davlat strategiyasini amalga oshirish uchun, jamiyat a'zolariga muhim bo'lgan tasavvur va

ustanovkalarni shakllantirish maqsadida, ijtimoiy faollikni amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Axborot vositasida tashqi psixologik ta'sir ko'rsatish davlatning tashqi siyosat konsepsiyasi asosida olib borilib, xalqaro siyosiy maydonda mamlakatning imijini ko'tarishga, turli darajalarda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zamin yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida internet, radio, televidenie yordamida, film va reklamalar, xabar, maqolalar, ko'ngilochar dasturlar, intervyu shakllarida, badiiy adabiyotning turli janrlarining namunalarida olib borilishi mumkin.

Axborot vositasida psixologik ta'sir ko'rsatishning turlari ko'p bo'lib, mudofaaviy faoliyatni ta'minlash nuqtai nazari asosida ularning asosiylari sifatida strategik, tezkor va taktik kabi turlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Ular maqsad va vazifalari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Xavfsizlik va barqarorlikka xavf soladigan tahdidlar axborot vositasida mamlakat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy, ma'naviy, ekologik, harbiy, ijtimoiy, demografik sohalariga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. SHu bois, jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirib, uni takomillashtirib borishida xizmat faoliyatini psixologik ta'minlash bo'yicha faoliyat yuritadigan mutaxassislar-ofitserlar etakchilik qilishlari lozim. CHunki, axborot madaniyatiga ega bo'lgan jamiyatning a'zosi o'z qadriyatlarining mazmunini, madaniyatining tarixi va ahamiyatini anglay olganligi sababli, uni manfaatlarini individual va guruhiiy darajalarda himoya qila oladi. Ma'rifiy jihatdan, "axborot madaniyati nafaqat xabarlarini saralash, ularni ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, g'oyasini aniqlash, xabar manbaini topish uchun xizmat qiladi, balki jamiyat manfaatini ta'minlaydi. Ularni axborot madaniyati vazifalari deb atashni lozim topdik. Bular quyidagilar:

- bilish vazifasi (axborot iste'molchilarining faoliyatini aniqlashga xizmat qiladi);

- tartibga solish vazifasi (jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi);
- tarbiyalash vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishga, qiziqishlarning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma'lum ustanovkalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi);
- mafkuraviy vazifasi (dunyoda bo'layotgan voqea hodisalarni, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga oid ma'lumotlarni mavjud g'oyalar manfaatlariga tayanib fuqarolarga etkazadi);
- xabar etkazish vazifasi (dunyoda sodir bo'layotgan voqea hamda hodisalarni insonlar ongiga etkazadi);
- tashxislash vazifasi (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholashga xizmat qiladi);
- prognostika o'tkazish vazifasi (inson hayotining va faoliyatining turli yo'nalishlarini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etadi) va boshqalar”.

“Jamiyatdagi biror bir rivojlanishni, axborot madaniyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bundan tashqari, axborot vositalari texnik-ta'minot imkoniyatlarining kengayishi bilan hayotning har bir sohasida axborot madaniyatining roli va o'rni oshganligini ko'rsatadi”³.

Axborot vositasida inson ongiga havola etilayotgan g'oyalarni uzatish shakllari ortib bormoqda. Badiiy ijod namunalarida bunyodkor va vayronkor g'oyalarni aks ettirilganligi bunga namunadir va ularning har biri qator vazifalarni bajarishga yo'naltirilgandir. Bunda yaratilgan ijod namunasi makonida mavjud mafkuralarning namunalari tarqatilishini ham kuzatish mumkin. Masalan axborot vositasida jamiyatning m'naviy sohasiga tahdid sifatida AQSH, Xitoy, Hindiston va boshqa xorijiy mamlakatlarda eksport

³ Каранг: Очерет Ю. Формирование информационной культуры личности в условиях информационно-библиотечных учреждений // Информационная культура в контексте новой парадигмы образования: проблемы, поиски, решения. – Кемерово, 2001.

uchun⁴ ishlab chiqargan filmlarni ko'rsatib o'tsak maqsadga muvofiqdir. Ular vositasida nomaqbul xulq namunalari turli mazmunda qahramonlar siymosida targ'ib etilmoqda. Masalan, "Jismoniy kuch muammoni echishning muhim uslubi", "Hamma narsani sotib olish mumkin" kabi g'oyalar turli syujetlar yordamida tamoshobinlarning e'tiboriga havola etiladi. Bunda oilaviy munosabatlar madaniyati va turli xil ijtimoiy muammolarning echimidan tortib to ishdagi munosabatlarga qadar (turli xavflarning mavjudligi, qo'rqish hissini uyg'otish, uni ifodalanishi, kasbdoshlarga, oila a'zolariga ishonmaslik, har qadamda xiyonatning mavjudligi va shu kabi) masalalar tasvirlanganligini kuzatish mumkin. Axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash nazaridan salbiy holat, bu vujudga kelgan muammoni "yagona echim yo'li"ni singdirish uchun xulq namunasini targ'ib etishdir. Va, u xulq namunasining tarkibida, maishiy va ijtimoiy me'yorlarni⁵ buzish, qadriyatlarga putur etkazish, qonunga amal qilmaslik emotsiyaga ta'sir ko'rsatish uchun ranglar bo'yog'laridan foydalanib, tamoshobinni idrok maydonini sathini belgilab beradi. YA'ni, shaxsiy hayotda uzatilayotgan axborotdan qaysi tarz va tartibda foydalanish uchun nimalarga diqqat qaratish lozimligini o'qtiradi.

R.Samarovning yozishicha "axborot so'zi arab (أخبارات) tilidan olingan bo'lib, "xabarlar majmuasi" degan ma'noni anglatadi. "Xabar" esa, arabchadan (خبر) ma'lum qilish, biror bir hodisani, voqeani etkazish degan ma'nolarni bildiradi. Maishiy va kasbiy muloqotda xabar berish, xabardor bo'lish, xabar topish kabi tushunchalar ko'p qo'llaniladi va ular vujudga kelgan voqea-hodisalarni ma'lum qilish, ya'ni kechayotgan jarayonni tasvirini (xabarini) "A" nuqtadan "V" nuqtaga etkazish uchun qo'llaniladi⁶. Fan va texnika yutuqlarini ijtimoiy-madaniy

⁴ Жуда кўп мамлакатларда яратиладиган бадиий фильм намуналари икки вариантда тайёрланади. Ички бозор учун ва ташқи бозор учун. Ташқи бозор учун айёрланган вариантларида ахборот воситасида салбий таъсир кўрсатиш ҳолатлари кузатилади.

⁵ Бажарилиши шарт бўлган, риоя қилиниши зарур ҳисобланган талаблар намунаси.

⁶ Самаров Р. Ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми (услубий қўлланма). – Тошкент: Университет, 2015. 9-бет.



hayotimizga jadal kirib kelishi natijasida xabarni uzatish vositalarining soni ham ortib bormoqda. Ularni turli belgilari asosida guruhlariga ajratish mumkin, jumladan sur'atining tezligi, matnni qamrab olish hajmi jihatidan. Lekin bir so'z bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari deb ko'rsatsak xato qilmagan bo'lamiz. Bu jarayonda axborotni psixologik xavfsizligini ta'minlashni texnik jabhasi dolzarblashadi. YA'ni, vosita sifatida qo'llanilayotgan texnik tizimdan (axborotni manzilga uzatish, saqlash, ishlov berish, jamlash jarayonida) axborotni chiqib ketmasligi (o'g'irlashi, o'zlashtirilishi, xabarni tarkibiga noqonuniy o'zgartirish kiritish, ya'ni raqam, dalillarni o'zgartirish) masalasi dolzarblashmoqda. SHu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi tushunchalari semantik jihatdan farqlanadi. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasining zahirida texnik ta'minot va vositalarning muhimligi, axborotning psixologik xavfsizligi tushunchasida xabarlardan axborotni tayyorlash (ishlab chiqarish, jamlash), unga maqsad, ma'no berish uchun aniq g'oyalardan foydalanish uchun faoliyat yurituvchi inson-mutaxassisning roli muhimligi tushuniladi.

Insonni axborot olishga bo'lgan ishtiyoqi, uni hayot tarzi va kechinmalaridan qat'iy nazar ortib boraveradi. Bu ishtiyoqni ortib borishi uning ehtiyojlar ierarxiyasida (pog'onasida. A.Maslouning ta'limoti bo'yicha) o'zini namoyon etish va xavfsizligini ta'minlash kabi ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshiriladigan harakatlari bilan bog'liqdir. SHu sababli, axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash yo'lida faoliyat yuritadigan mutaxassis, axborot xuruji, axborot kurashi, axborot xavfsizligi kabi konseptlarni (tushunchalarni) mohiyatini anglay olishi lozim. Axborotning psixologik xavfsizligi deganda, individual, guruhviy va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga (hissiy-irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohasiga), jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga taalluqli bo'lgan axborotning destruktiv, ya'ni salbiy mazmundagi xossalardan (ta'sir etuvchilardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim.

Demak, har qanday axborot voqeaning vujudga kelishi, kechishi, ishtirokchilarining sonini belgilanishi jihatlari bilan alohida mazmun kasb etadi.

Ma'nosi jihatidan , mohiyati, ta'sir etish darajasi, inson va jamiyatga foydali yoki zararliligi jihatlari bo'yicha kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi uchun qo'llanilishi mumkin. Axborotni psixologik xavfsizligini ta'minlovchi soha vakillari, aynan yovuzlikka da'vat etuvchi mazmunga ega bo'lgan axborotlarni turli darajada zararlantira olishlari lozim.

SHu tariqa, axborotning psixologik xavfsizligi tushunchasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, axborotning psixologik xavfsizligi deganda, individual, guruhiiy (jamoaviy) va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga, aniqrog'i insonni hissiy–irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohalariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga, davlatning ichki yoki tashqi faoliyatiga taalluqli bo'lgan axborotni destruktiv, ya'ni salbiy mazmundagi xossalardan (ta'sir etuvchilardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim.

Ikkinchidan, axborotning psixologik xavfsizligi – bu bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, ideallaridan, muqaddas e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrash uchun amalga oshiriladigan faoliyatdir. Demak, axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlashga avvalo inson va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga qarshi yo'naltirilgan tarkibida buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarni mujassam etgan axborotni zararlantirish uchun amalga oshiriladigan harakatdir.

Uchinchidan, axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash shaxs, jamiyat va davlat darajasida ta'minlanib, bunda milliy manfaatlarni himoyasini ta'minlash birlamchi asos hisoblanib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vosita hisoblanadi.

To'rtinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi semantik jihatdan farqlanib, axborot-psixologik xavfsizlik texnik jihat, aniqrog'i dasturiy vositalar yordamida axborotni jamlash, saqlash, saralash, uzatish

jarayonida uni chiqib ketmasligini ta'minlashni nazarda tutadi. Axborotning psixologik xavfsizligi deganda mutaxassis tomonidan axborotning tarkibida salbiy xulq namunasini ifodalashga chorlovchi (da'vat etuvchi) tarkiblarni zararlantirish natijasida vujudga kelgan ijtimoiy-psixologik holat tushuniladi.

Axborotning psixologik xavfsizligi — bu shaxs va jamiyatni destruktiv axborot ta'siridan himoya qiladigan ko'p komponentli holat va mexanizmlar majmuasidir. Uning markazida tanqidiy tafakkur, kognitiv mustaqillik va emotsional barqarorlik turadi; amaliy darajada esa media savodxonlik, axboriy-gigiyena, ishonchli manbalar bilan ishlash va platformaviy xavfsizlik choralariga tayanadi. Ochiq axborot tizimlarida algoritmik “echo chamber”, bot-tarmoqlar, kiberbulling va deepfake kabi risklar ushbu xavfsizlikni kompleks yondashuvsiz ta'minlashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun individ–institut–platforma–huquq darajalarida uyg'un profilaktika va javob mexanizmlarini joriy etish psixologik xavfsizlikni barqaror kafolatlashning eng samarali yo'lidir.